**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
**Chirchiq davlat pedagogika**
**universiteti rektori**
**G.I.Muxamedov**
**______________________________**
**«_______»___________2025 yil**

# 13.00.03 – MAXSUS PEDAGOGIKA UCHUN IXTISOSLIK FANIDAN DASTUR

**Chirchiq – 2025**

## Kirish

Ushbu dastur maxsus pedagogika fani predmeti, obyekti, tarixi, maqsadi va vazifalari, fanning tadqiqot uslublari, hozirgi zamon maxsus pedagogikaning asosiy metodologik aspektlari, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi va tarbiyasi, ijtimoiy adaptasiyasi va reabilitasiyasini amalga oshirish muammolarni yechishdagi o'rnini o'rganishda nazariy va amaliy masalalarni yechish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi psixo-fiziologik kamchiliklarni erta aniqlash, bartaraf etish, tuzatish yoki kompensasiya qilish usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasiga oid ta'limotlarni o'rganish asosida o'qitish amaliyotini modernizasiyalash bilan shug'ullanishdir.

Jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarning etiologiyasi, klinik belgilari, turlari va darajalarini o'rganish va alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limining samaradorligini oshirishga oid maqbul texnologiyalarni tanlash, takomillashtirish, amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

## ASOSIY QISM

### Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va ularning tasnifi

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar - o'rganish, o'qitish va tarbiyalash ob'ekti sifatida. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganish va ularga yordamni tashkil etish masalalari. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda ijtimoiy pedagogik omillar. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasnifi hamda uning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus muassasalarni differensiasiyalashdagi ahamiyati. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktab o'quvchilarining pedagogik tasnifi.

### Oligofrenopedagogika

Aqli zaiflikning mohiyatini tushunishdagi asosiy yo'nalishlar. Hozirgi davrda og'ir va chuqur darajadagi aqli zaif bolalarga yordamning tashkil etilishi. Og'ir va chuqur darajadagi jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarni hayotga, qo'lidan keladigan mehnatga moslashuvi, potensial imkoniyatlari masalalari. Horijiy davlatlarda og'ir va chuqur darajadagi jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarga yordamning tashkil etilishi. YuNESKO, YuNESEF, sog'liqni saqlash halqaro tashkilotlarining bu yo'nalishdagi faoliyati. Og'ir va chuqur darajadagi aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion – tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Og'ir va chuqur darajadagi jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy moslashuvi. Og'ir va chuqur darajadagi jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlantirish masalalari. Og'ir va chuqur darajadagi bolalarni ahloqiy tarbiyalash, ularda to'g'ri xulq malakalarini shakllantirish. Mehnatga o'rgatish.

Og'ir va chuqur darajadagi aqli zaif bolalarda kuzatiladigan psixik va jismoniy nuqsonlar. Harakat doirasining rivojlanmay qolganligi. Og'ir va chuqur darajadagi bolalarning diqqat, tafakkur, xotira jarayonlarining xususiyatlari. Imkoniyati cheklangan bolalarlarning ko'p uchraydigan formalaridagi kasalligi

bo‘lgan bolalar, bolalar serebral falajligi og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan chuqur va og‘ir darajadagi jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalar, fnetilketonuriya bilan kasallangan jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalar.

Imkoniyati cheklangan bolalarlarni psixologik – pedagogik o‘rganishning mazmuni va uni tashkil etish. Imkoniyati cheklangan bolalarlarni psixologik, pedagogik o‘rganish tamoyillari. Imkoniyati cheklangan bolalarlarni TPPKda tekshirish. korreksion-tarbiyaviy ish jarayonida og‘ir va chuqur darajadagi bolalarni psixologik – pedagogik o‘rganish dasturi.

Og‘ir darajadagi aqli zaif bolalarni va ular bilan olib boriladigan ish xususiyatlari. Xulqi, jismoniy tarbiyasi, o‘ziga – o‘zi xizmat qilishi. Ta'lim olishga qobiliyatli og‘ir darajadagi jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish. Ularning nutqini rivojlantirish. Yakka rivojlanish dasturini tuzish.

## Logopediya

Nutq kamchiliklarini o‘rganish. Nutq faoliyati buzilishining mexanizmlari. Nutqining anatomik–fiziologik mexanizmlari. Nutq apparatining tuzilishi. Nutqni idrok etishdagi kamchiliklar. Birlamchi va ikkilamchi nutqiy buzilishlar. Nukson tuzilishidagi nutqga oid va nutqqa bog‘liq bo‘lmagan ko‘rinishlar. Nutq kamchiliklarining klinik-pedagogik tasnifi. Maktabgacha va maktab yoshidagi rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlashning asosiy tomonlari va xususiyatlari. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar nutqini sistemali va xar tomonlama tekshirish. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar nutqini o‘rganish metodlari va usullari.

Ovoz buzilishlari. Ovoz apparatining akustikasi va ovozning akustik tuzilishi. Ovoz patologiyasi, ovozdagi o‘zgarishlar (buzilishlar)ning sabablari va turlari. Ovoz buzilishining tasnifi. Organik ovoz buzilishlari, funsional ovoz buzilishlari. Ovoz buzilishlari. Ovoz buzilishlarini bartaraf etish yo‘llari. Ovoz buzilishlari profilaktikasi va ovoz gigienasi.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. Dislaliya. Funsional va mexanik, monomorf va polimorf, oddiy va murakkab dislaliya. Dislaliya turlari. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. Tovush talaffuzi va nutq eshituv idrokining buzilishi (fonetik, fonematik va fonetik-fonematik). Tovush talaffuzi buzilishlarini to‘g‘rilash usullari. Logopedik ish davrlari: tayyorlov, tovushni nutqka ko'yish, tovushni nutqda mustaxkamlash (avtomatlash), tovushlarni ajratish (differensiasiyalash), tovushni nutq faoliyatiga kiritish. Xar bir davrning vazifasi va ish usullari. Turli xil sigmatizmni bartaraf etish. Rotasizm va lambdasizmni bartaraf etish. Til orqa (k,g,x) va chukur til orka (k,x) tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

Rinolaliya. Buzilish mexanizmi, sabablari va uni aniqlash. Rinolaliya shakllari. Ochik rinolaliya. Yopik rinolaliya. Aralash rinolaliya. Tanglaydagi tugma yoriklarning bolaning jismoniy o‘sishiga, nutqi va psixikasiga ta'siri. Rinolalik bolalarga kompleks, ya'ni tibbiy-pedagogik ta'sir logopedik ishning bir qismi sifatida. Ochiq rinolaliyada logopedik ishning asosiy tamoyillari. Jarrohlikkacha va jarrohlikdan keyin olib boriladigan logopedik ish metodikasi.

Dizartriya. Dizartriya xaqida tushuncha. Dizartriyaning sabablari. Dizartriya

bolalar sholligi kasalligining belgisi sifatida. Dizartriya tasnifi. Asosiy shakllari va ularning belgilari. Dizartrik bolalarning salomatligi, psixik va nutq tarakkiyotining o‘ziga xos xususiyatlari. Dizartriyani bartaraf etishda olib boriladigan ishlarining davrlari va prinsiplari. Dizartriyani baratraf etishda logopedik ish tizimi.

Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga (FFN) ega bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash. FFN hakida tushuncha. FFN turli darajadagi ko‘rinishlari, tavsifi. FFNga ega bo‘lgan bolalar nutqini tekshirish. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda namoyon bo‘ladigan FFNni bartaraf etish buyicha olib boriladigan ish mazmuni, korreksion ishni tashkil etish va rejalashtirish.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan (NTR) bolalarni o‘qitish va tarbiyalash. Nutqning to‘lik rivojlanmaganligi haqida tushuncha. NTR bolalar tasnifi. Nutqning to‘liq rivojlanmganligi darajalari va ulraning namoyon bulishi. NTR bolalar nutqini tekshirish. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi xar bir darajasini bartaraf etish buyicha olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni va vazifalari.

Yozma nutqdagi kamchiliklar. O‘qish va yozishdagi kamchiliklar. Yozma nutq buzilishlarning sabablari, shaklari va darajasi. O‘qish va yozuvdagi kamchiliklarning nutq, eshitish va ko‘rishidagi nuqsonlar bilan hamda bosh miya funksiyasidagi buzilishlari bilan bog‘liqligi. Yozuv va o‘qishning asosiy operasiyalari. Yozma nutq buzilishlarini bartaraf etishda logopedik ish tizimi.

Duduqlanishning psixofiziologik mexanizmlari. Duduqlanishning tipologiyasi. Duduqlanish tabiati va xarakteri xususida zamonaviy nuktai nazarlar. Pay torishishi lokalizasiyasi va turlari. Turli yoshdagi odamlarda duduqlanish kechishning xususiyatlari. Duduqlanuvchi bola nutqini to‘g‘rilash va shaxsini tarbiyalashga oid logopedik ishning asosiy yo‘nalishlari.

**Surdopedagogika**

Surdopedagogika fan sifatida, ilmiy – nazariy metodologik asoslari. Surdopedagogika – eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug‘illanadigan fan. Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Surdopedagogikaning tadqiqot metodlari. Surdopedagogikaning rivojlanish bosqichlari. Surdopedagogikaga oid ilmiy tadqiqotlar.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta'limi tarixi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tasnifi va diagnostikasidagi zamonaviy yondashuvlar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta'lim tizimi. Surdopedagogikaning tamoyillari. Surdopedagogikaning didaktik masalalari. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limi, tarbiyasi, ijtimoiy moslashuviga oid tadqiqotlar. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limining metodik aspektlari. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limining asosiy shakllari. Dars va korreksion mashg‘ulotlar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishining mazmuni va metodlari. Kar va zaif eshituvchilarni ta'limini assistiv texnologiya va vositalar. Kar va zaif eshituvchi bolalarni eshituv nutqiy faoliyatga tayyorlash metodlari. Kar bolalar nutqiy akselerasiyasi. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limi tarbiyasi ijtimoiylashuvida “ 1-4-5” strategiyasi va “Yagona nutqiy tartib”. Kar va zaif eshituvchi bola rivojlanishida daktil va imo-ishora nutqining imkoniyatlari. Kar va zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalash yonalishlari metod va

vositalari. Kar va zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvi omillari va starategiyalari.

**Tiflopedagogika**

Tiflopedagogika fan sifatida, ilmiy – nazariy metodologik asoslari. Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari (psixologo-pedagogik tavsif). Nasliy xususiyatlar, tug‘ma layoqatlar, psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy asoslari. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning psixik rivojlanishida maktabgacha davrning ahamiyati. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishi maktabgacha davrining pedagogik jihatdan bosqichlari. Asosiy faoliyatning bolaning psixik rivojlanishiga ta'siri. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning nuqsonli rivojlanishi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning pedagogik tasnifi. Bolalarning maktabgacha davrdagi axloqiy rivojlanishi xususiyatlari: jismoniy va psixik rivojlanishi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ilk bolalik davridagi rivojlanish xususiyatlari: jismoniy rivojlanishi, predmetli faoliyati, nutqining rivojlanishi. ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni maktabgacha tarbiya yoshidagi rivojlanish xususiyatlari. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning lug‘atidagi nuqsonlarini korreksiyalashning ilmiy-nazariy asoslari. O‘zbekistonda ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish masalalari yuzasidan olib borilgan ilmiy ishlar. Shuningdek boshqa davlat tadqiqotchilarining olib borgan ilmiy ishlari (L.S.Volkova, S.L.Korobko, A.G.Litvak, L.I.Lukoshevich, L.I.Plaksina, L.I.Solnseva, T.P.Sviridyuk, S.A.Pokutneva, V.A.Feoktistova, I.P.Chigrinova, I.V.Novichkova va boshqalar).

Brayl tizimining yaratilishi. Brayl alifbosida o‘qish va yozishni o‘rgatish. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari, shakllari va tamoyillari. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotida asosiy didaktik tamoyillarni qo‘llashning xususiyatlari. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida qo‘llaniladigan tamoyillar.

Ta'lim tarbiyada so‘z, ko‘rgazma va amaliy metodlarni birgalikda qo‘llash, guruhli va individual o‘qitishning o‘zaro bog‘liqligi, barcha faoliyatda pedagogning boshqaruvchiligi. Tashkiliy shakllar: mashg‘ulotlar, o‘yinlar, ekskursiyalar, mehnat faoliyati.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqining rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalari insonlarning ichki sifatlarini anglatuvchi so‘zlarni kam qo‘llashi. Ravishlardan ham chegaralangan xolda foydalanishi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni so‘zlarni noaniq qo‘llashlari sababi predmetlarni nima uchun kerakligini farqlay ololmasliklari. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning differensiya qilish jarayonlari sustligi, predmetlarni farqli tomonlariga nisbatan, o‘xshash jihatlarini egallashlari osonroq kechishi. Ularning passiv lug‘ati faol lug‘atiga nisbatan ko‘proqligi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ularni o‘rab turgan ko‘pgina predmetlarni nomini, ayniqsa predmetlarning alohida qismlarni nomni bilmasligi. Ularning lug‘at zahiralarida umumlashtiruvchi xarakterdagi so‘zlar bo‘lmasligi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar fe'llarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay olmasligi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida korreksion-pedagogik jarayonning tashkil etilishi. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabgacha ta'lim tashkiloti defektolog shaxsi va kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo‘yiladigan talablar. Uning asosiy vazifalari. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlarning o‘ziga xosligi. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachisi, uning ishi xususiyatlari, asosiy vazifalari.

Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari o‘quv dasturi (ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun). Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasiga qo‘yilgan talablarni o‘quv dasturida aks ettirilishi. O‘quv dasturining tuzilishi tamoyillari: maktabga tayyorlash, tayanch korreksion yo‘nalganligi, asosiy turdagi bolalar faoliyatini normada rivojlanishiga tayangan holda shakllantirishning ketma-ketligi, materialning joylashtirishni sistemaliligi, ketma-ketligi, asta-sekin murakkablashtirish; korreksion-tarbiyaviy ta'sirning uzluksizligi va bir butunligi. Bolalarning turli faoliyatlarida ularning individual va yosh xususiyatlarini nazarda tutish. ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari, shakl va tamoyillari.

**Imkoniyati cheklangan bolalarlarning ijtimoiy – maishiy orientirovkasi. Imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy – mehnatga moslashuvi**

Imkoniyati cheklangan bolalarlarning ijtimoiy – maishiy orientirovkasi va nutqning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish. Imkoniyati cheklangan bolalarlarning ijtimoiy bog‘lanishlarini kengaytirish. Imkoniyati cheklangan bolalarlar bilan ijtimoiy maishiy orientirovka bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish. Imkoniyati cheklangan bolalarlarda dialogik nutqni shakllantirish. Imkoniyati cheklangan shaxslarni mehnatga tayyorlash masalalari. Imkoniyati cheklangan shaxslarning mehnat faoliyatini tashkil etish.

**Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodlari**

Bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish metodlari. Pedagogik tekshirish, psixologik tekshirish. Psixologik-pedagogik tekshirishga qo‘yiladigan talablar. Bolalarni o‘rganishda, tekshirishda (suhbat, bolalarning faoliyati va xulqini kuzatish, eksperimental-diagnostik metodikalar, bilim va malakalarning holatini o‘rganish va h.k.) qo‘llaniladigan metodlar.

**Imkoniyati cheklangan bolalarlarni oilada tarbiyalash**

Imkoniyati cheklangan go‘dakni parvarishlash – tik turish va yurishni shakllantirish. Mustaqil ovqatlanish, kiyinishga o‘rgatishda ota-onaning roli. Nutqni rivojlantirish, o‘yinni o‘rgatish o‘ziga – o‘zi xizmat qilish va uy ishlariga o‘rganish. Imkoniyati cheklangan bolalarga jamoatchilik yordami rivojlanishining asosiy bosqichlari va aqli zaiflik haqida fikrlar.

**Nuqsonli bolalarga jamoatchilik munosabati xarakterini iqtisodiy va ijtimoiy bog'liqligi.**

Qadimgi davrda va o'rta asrlarda imkoniyati cheklangan bolalarga bo'lgan munosabat. Qadimgi davrda nuqsonli bolalardan qutilish. Insonning ruhiy hayoti haqidagi dastlabki ilmiy tushunchalar. Imkoniyati cheklangan bolalarga bo'lgan diniy qarashlar. O'rta asrlarda imkoniyati cheklangan bolalarga bo'lgan munosabatlar. Ruhiy kasalliklarning birinchi tasnifi. Uyg'onish davrida imkoniyati cheklangan bolalarga gumanistik qarashlarning vujudga kelishi. Rossiyada va chet ellarda imkoniyati cheklangan bolalar haqidagi dastlabki qonuniy aktlar. Imkoniyati cheklangan bolalar haqida dastlabki pedagogik fikrlar.

**Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda ta'lim jarayonini tashkillashtirish masalalari**

Ta'lim jarayoni dialektikasi, yaqin rivojlanish zonasini e'tiborga olish. O'qitish jarayonining ta'limiy, korreksion-rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalari. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda o'qitish jarayonining xususiyatlari. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda o'qitish jarayonining psixologik asoslari. Bilimlarni egallash jarayonining tuzilishi (idrok, tushunish, mustahkamlash, qo'llash). O'quvchilarni yangi materialni idrok etishga tayyorlash.Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda ta'lim metodlarini amalga oshirishning xususiyatlari. Ta'limning korreksion-rivojlantiruvchi, amaliy yo'nalganligi. Metodlarni tanlashning o'quv predmetining xususiyatlari, o'quvchilar tarkibi, didaktik vazifalarga bog'liqligi. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish xususiyatlari. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda ta'lim tamoyillarini asoslash. Ta'limning tarbiyalovchi xarakteri. Ilmiylik, sistemalilik, ketma-ketlik tamoyillari. Ta'limda ko'rgazmalilik. So'z, ko'rgazma va amaliy faoliyatni bog'lash, ko'rgazmalilikning korreksion roli. Onglilik va faollik tamoyili. O'quvchilarga individual va differensial yondashish. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda ta'lim tamoyillarini amalga oshirish: ta'limning korreksion-rivojlantiruvchi va amaliy yo'nalganligi. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda tashkiliy ish shakllari: frontal, guruhli, individual. Dars o'qitish va tarbiyalashning asosiy shakli. Darslarning turlari va tuzilishi. Yangi bilim berish darslari. Takrorlash-mustahkamlash darslari. Nazorat darslari. Aralash darslar, ularning tuzilishi. Darsda o'quvchilarning ishlash qobiliyatini e'tiborga olish. Darsga qo'yiladigan talablar. Darsda frontal, individual va guruhli ishlarning muvofiqligi. Darsning tarbiyaviy imkoniyatlari. Maktabda ekskursiya- o'quv ishi shakli sifatida.

**Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish**

Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda tarbiya jarayonining asosiy xususiyatlari. Aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalash masalasiga asosiy yondashishlar, ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Milliy an'analar, xalq pedagogikasi asosida tarbiyalash. Tarbiya jarayonining asosiy qismlari: maqsadi, vazifalari, tamoyillari, metodlari, tashkiliy shakllari, muhit bilan o'zaro aloqadorlik. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda o'quvchilarning xulqini

baholashda va bolaga tarbiyaviy ta'sir tizimini rejalashtirishda hissiy-irodaviy sohasining tipik va individual o‘ziga xosligini va xarakterli patologik tomonlarini nazarda tutish. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktab bitiruvchilarini hayotga, oilaga tayyorlash, ijtimoiy moslashtirish va reabilitasiya qilishda ijtimoiy-maishiy yo‘naltirishning roli. Hozirgi zamon talablariga muvofiq ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda tarbiyaning mazmuni. Intizomlilik, javobgarlik, burch va mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash. Imkoniyati cheklangan bolalarning klinik, psixologik xususiyatlari va tarbiyalashning ijtimoiy sharoitidan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirilgan maxsus maktabda korreksion-tarbiyaviy ish vositalari va pedagogik vazifalarni differensiasiyalash. Ongni shakllantirish metodlari (ishontirish metodlari: hikoya, suhbat, tushuntirish). Xulqni shakllantirish metodlari: mashqlar, tarbiyalovchi vaziyatlarni yuzaga keltirish. Rag‘batlantirish metodlari: musobaqa, maqtash, jazolash. Tarbiyaviy ishlarning jamoa, guruhli, individual shakllari.

**O‘zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi**

Ta'lim tizimi to‘g‘risida tushuncha. Ixtisoslashtirilgan maxsus maktab, yordachi maktab-internatlar, inklyuziv sinf va maktablar. Ta'lim muassasalari va ularning xususiyatlari. Maktabdan tashqari muassasalar, ularning ixtisoslashtirilgan maxsus maktab bilan aloqasi. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktabni boshqarish metodlari: normativ, tashkiliy-irodaviy, pedagogik, ijtimoiy-psixologik. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktabni boshqaruvini o‘ziga xosligi. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktab rahbarlari shaxsiga ijtimoiy-psixologik talablar. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktab rahbarlari ishini tashkil etish. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktab ustavi, maktab rahbari vazifalari to‘g‘risida. Direktor va o‘rinbosarlarning vaqt byudjetlari. O‘quv ishlari tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlari tashkilotchisi va ularning vazifalari. Pedagogik kadrlar malakasini oishiri. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktabda metodik ishlar. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktab o‘qituvchilari metod birlashmalarining faoliyati. Ixtisoslashtirilgan maxsus va inklyuziv maktab o‘qituvchilarining o‘z ustida ishlashi. Maktabda jihozlash va maktab hujjatlari.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. 2023 yil 1-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Ta'lim to‘g‘risida”. – T.: 2020 yil 23 sentyabr // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent.: 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son. 3-modda
4. F.U.Qodirova, U.Yu.Fayzieva, Sh.Kobilova, O.Ishmatova, M.Umaralieva. Surdopedagogika. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2024 y.
5. Sh.A.Abdujalilova. Davolovchi pedagogika. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2024 y.
6. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova. Tiflopedagogika. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2023 y.
7. F.U.Qodirova, M.Umaralieva, Sh.Matupaeva, M.Omonova. Maxsus

pedagogika asoslari. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2023 y.
8. G.Abdullaeva, Sh.Kobilova. Logopedik massaj. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2023 y.
9. F.U.Qodirova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullaev, Z.X.Xusnuddinova. Maxsus pedagogika asoslari. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2023 y.
10. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Autizm sindromli bolalar bilan ishlash metodikasi. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2023 y.
11. F.U.Qodirova, - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2023 y.
12. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova, M.Dexqanova, Sh.Ibadullaeva. Surdopsixologiya. - T.: Zebo-Print nashriyoti, 2023 y.
13. M.Yu.Ayupova. Logopediya.; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta 'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007 y.
14. M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika. "Fan va texnologiya", Toshkent - 2018 y.
15. V.S.Raxmanova. Defektologiya asoslari (Korresion pedagogika) Toshkent "NISO POLIGRAF", 2017y.
16. L.P. Mo'minova va boshq. Maxsus pedagogika / Maxsus pedagogika. – Toshkent: Noshir, 2016. – 128 b.
17. P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. Maxsus pedagogika."Fan va texnologiya" nashriyoti 2014y.
18. P.M.Po'latova. Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2005y.
19. K.K.Mamedov, G'.B.Shoumarov. Podobed. V.P. "Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. - T., 1999 y.
20. Vernadskaya M.E. Osobennosti zritelnogo vospriyatiya mladshix shkolnikov s normalnim i gluboko narushennim zreniem: Avtoreferat diss... kand. psixol. nauk. -M., 1999
21. Volkova L.S.Viyavlenie i korreksiya narusheniy ustnoy rechi uslepix i slabovidyashix detey .-M.,1991.
22. Izotova V.S.Osobennosti formirovaniya predstavleniy o nejivoy prirode u slepix doshkolnikov (starshego vozrasta): Avtoreferat diss.. kand. ped. nauk. - M., 1993.
23. Imad Al Muflex. Formirovanie zritelnix obrazov mladshix shkolnikov s glubokim slabovideniem i ostatochnim zreniem: Diss. . kand. psix. nauk. -M., 1993. -162s.
24. Istoriya logopedii. pod red. V.I.Seliverstov, M.: Vlados. 2001 g.
25. Maler A.R., Sikoto G.V. Vospitanie i obuchenie detey s tyajeloy intellektualnoy nedostatochnosti. M., 2003g.
26. Nurkeldieva D.A. Aqli zaif bolalarning maktab ta'limiga nutqiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Ped. fanl. nom....diss. - T., 2001 .
27. Novichkova I.V. Korreksiya nedostatkov razvitiya rechi u doshkolnikov s kosoglaziem i ambliopiey: Avtoreferat diss. . kand. ped. nauk. M., 1997.
28. Raxmankulova N.X. Formirovanie nravstvennix vzaimootnosheniy zaikayushixsya detey mladshego shkolnogo vozrasta so sverstnikami. AKD. - Toshkent, 1994.
29. Pulatova X.M. Aktivizasiya rechevoy deyatelnosti detey doshkolnogo vozrasta s obshim nedorazvitiem rechi. Avtoref. diss.kand. ped. nauk. 1994.
30. Hamdamova M.Z. 1-2 sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish

tajribasidan. Ped.fan.nom. ..diss. – T., 1998.
31. Hamdamova M.Z. Birinchi sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish usullari (metodik tavsiyalar). – T.: O'z.PFITI, 1994.
32. Hamidova M. Aqli zaif bolalarda so'z boyligini oshirishning korreksion-pedagogik asoslari. Ped. fan. …nomz. diss. - T. 2002.
33. Xrestomatiya po logopedii. T.-1. (Pod.red. P.S.Volkova., V.I.Seliverstov.) Izdatelstvo Vlados. M., 1997.
34. Xrestomatiya po logopedii. T.-2. (Pod.red. A.S.Volkova., V.I.Seliverstov). Izdatelstvo. Vlados. M., 2002g.
35. Shomaxmudova R. Sistema korreksionno-pedagogicheskoy raboti po razvitiyu russkoy rechi umstvenno otstalix uchashixsya 2-3 klassov (s uzbekskim yazikom obucheniya).: Avtoref. dis...kand. ped. nauk. – M.: MGPU. 1991. – 16 s.
36. Qodirova F. «Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar so'zlashuv nutqini shakllantirish». Ped.fan.nom. ..diss. –T., 2006.
37. Qodirova F. "Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari" . p.f.d, diss. -T.2020.

**Internet saytlari**

http://www.natlib.uz/uz/
http://www.lib.mn/
http://www.molbiol.ru
http://www.ncbi.nlm.nih.gov

**13.00.03- Maxsus pedagogika ixtisosligi bo'yicha oliy tal'limdan keyingi ta'lim insititutiga kirish imtihonlari uchun savollar majmuasi**

1. O'zbekistonda maxsus pedagogikaning rivojlanish bosqichlari.
2. Maxsus pedagogikada Yan Amos Komenskiy g'oyalarining negizlari.
3. O'zbekiston Republikasi Konstitusiyasi, Inson xuquqlari Deklarasiyasi, Bolalar huquqlari Konvensiyasida nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasiga oid me'yorlar.
4. L.S.Vigotskiy ta'limotlari va ularning mohiyati.
5. Maxsus pedagogika fanining maqsadi, vazifasi, predmeti.
6. Imkoniyati cheklangan bolalar toifalari.
7. Maxsus pedagogika fanida ta'lim tamoyillari.
8. Sensor nuqsonli bolalarning ta'lim-tarbiya nazariyasi.
9. Hozirgi zamon maxsus pedagogika fanining metodologik asoslari.
10. Autizm sindromli bolalar va ular bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar tizimi.
11. Maxsus pedagogikaga oid tadqiqotlar va ularning amaliyotdagi o'rni.
12. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar haqida.
13. Maxsus pedagogikada differensial yondashuvlarning o'rni.

14. Inklyuziv va integrasiyalashgan ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning mohiyati va mazmuni.
15. Ixtisoslashtirilgan maktabda kun tartibi.
16. Ixtisoslashtirilgan maktabda va inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash.
17. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi va tarbiyasi.
18. Alohida ehtiyojli bolalar reabilitasiyasi.
19. Ixtisoslashtirilgan maktabda o'qituvchi, tarbiyachi va korreksion mashg'ulot pedagoglari faoliyati.
20. Inklyuziv va integrasiyalashgan ta'lim sharoitida jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning mohiyati va mazmuni.
21. Inklyuziv ta'lim sharoitida jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning psixologik xususiyatlari.
22. Kar bolalar ta'limi tarixi.
23. Kar bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi xususiyatlari.
24. Kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiylashtirish masallari.
25. Imkoniyati cheklangan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish va o'rgatish.
26. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limining metodik aspektlari.
27. Aqli zaif bolalar tasnifi.
28. Aqli zaif bolalarga fanlarni o'rgatish metodlari.
29. Aqli zaif bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash metodlari va yo'llari.
30. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiy moslashuvi.
31. Ixtisoslashtirilgan maktabda metodik ishlarning tashkil etilishi.
32. Ixtisoslashtirilgan maktabda tarbiyaviy ishlarni boshqarish.
33. Zamonaviy tashxis tendensiyalari.
34. Maxsus pedagogikaning klinik asoslari, mazmuni va mohiyati.
35. Logopediya fan sifatida, ilmiy-nazariy, metodologik asoslari.
36. Oligofrenopedagogikaning fan sifatida ilmiy-nazariy metodologik asoslari.
37. Surdopedagogikaning fan sifatida ilmiy-nazariy metodologik asoslari.
38. Tiflopedagogikaning fan sifatida ilmiy-nazariy metodologik asoslari.
39. Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi.
40. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning pedagogik tavsifi.
41. Brayl tizimining yaratilishi. Brayl alifbosida o'qish va yozishni o'rgatish.
42. Maxsus ta'lim tizimi taraqqiyotining hozirgi zamon ustuvor yo'nalishlari.
43. Korreksion-pedagogik, rivojlantiruvchi-tarbiyaviy yordamni tashkil etish.
44. Sharq mutafakkirlari qarashlarida bola tarbiyasi masalalari.
45. Hozirgi zamon maxsus ma'lim tizimidagi muammolar va echimlar.
46. Neyropsixologik tekshirish metodlarining logopediyada qo'llanilishi.
47. Alohida yordamga muhtoj bolalarni o'rganishdagi asosiy psixo-diagnostik modellar.
48. Ota-onalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar mazmuni.
49. Alohida yordamga muhtoj bolalarni maktabga tayyorlash.
50. Nutqning anatomik – fiziologik mexanizmi.
51. Nutq buzilishlarining tasnifi.

52. Bolalar nutqini rivojlanish xususiyatlari.
53. Dislaliya sabablari, mexanizmlari, shakllari, turlari.
54. Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi.
55. Tovushlarni nutqqa qo‘yish usullari, davrlari
56. Rinolaliya, sabablari, mexnaizmlari, shakllari.
57. Dizartriya ta'rifi, sabablari, mexanizmi.
58. Dizartriya shakllari va ularni namoyon bo‘lishi.
59. Dizartriyada logopedik ish mazmuni.
60. Alaliyani sabablari va mexanizmi.
61. Alaliyada nutqnnig rivojlanmaganlik darajalari.
62. Afaziya ta'rifi, sabablari.
63. Afaziyaning shakllari.
64. Sensor afaziyada nutqni tushunishdagi buzilishlar.
65. Afaziyani bartaraf etishda logopedik ish mazmuni.
66. Duduqlanish ta'rifi, sabablari.
67. Duduqlanishni bartaraf etishda S.A.Mironova metodikasi.
68. Duduqlanishni bartaraf etishda N.A.Cheveleva metodikasi.
69. Yozma nutq buzilishlari.
70. Yozma nutq buzilishlari tushunchasi, ta'rifi va tasnifi.
71. Yozma nutq buzilishlarini bartaraf etish usullari.
72. Fonetik- fonematik nutq buzilishi.
73. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi ta'rifi, sabablari.
74. NTR klinik ko‘rinishlari.
75. NTR bolalar nutqini tekshirish.

**Fakultet dekani** **J.E.Usarov**

**Kafedra mudiri** **F.U.Qodirova**